



ISAJON SULTON HIKOYALARIDA AN'ANAVIYLIK VA NOVATORLIK

Mohinur Sherboyeva

*Qoraqalpoq davlat universiteti,
O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi*

Annotasiya: *mazkur maqolada yangi davr kishisi sifatida, badiiy kashf etishning o'ziga xos usullari, an'anaviylik va novatorlikni uyg'unlashtirilgan holda aks ettiradi. Ya'ni hozirgi rivojlangan texnika, sun'iy intellekt davrida tabiat va bolalik kontseptsiyasining ta'sirchan tadqiqi, atrof-muhit sharoitlarining, bolalarning hissiy holati, idroki va tasavvufdagi chuqur ta'sirini yaratadi. Shuningdek hozirgi dolzarb muammolarni go'zallik va hayratlanarli lahzalar bilan birlashtirib, tabiat va inson o'rtasidagi murakkab ta'sirli aloqalarning badiiy ifodasi yoritilgan. Ya'ni tabiat va inson o'rtasidagi murakkab munosabatlar, tabiatning qahramon kamolotiga, o'zini his qilishiga tevarak atrofdagi olam bilan bog'lanishiga ta'siri "Yigirma birinchi asrning sakkiz yashar bolasi" hikoyasi orqali tasvirlab beriladi.*

Аннотация: В этой статье рассказывается о восемилетнем ребенке как о человеке новой эпохи, с уникальными методами художественного открытия, сочетающими традиционализм и новаторство. Современные передовые методы, впечатляющее исследование природы и детских концепций в эпоху искусственного интеллекта, создают глубокое влияние условий окружающей среды на эмоциональное состояние, восприятие и мистику детей. Он также освещает художественное выражение сложных аффективных отношений между природой и человеком, сочетаю текущие насущные проблемы с красотой и удивительными моментами. То есть сложные взаимоотношения природы и человека, влияние природы на созревание героя, на его самочувствие и связь с окружающим миром описываются через повесть "восьмилетний мальчик двадцать первого века".

Kalit so'z: *an'anaviylik, novatorlik, fan-texnika, sun'iy intellekt, qahramon, badiiy ifoda.*

Ключевое слово: *традиционализм, новаторство, наука и техника, искусственный интеллект, герой, художественное выражение.*

Badiiy adabiyotda hikoya eng sermahsul janrlardan biridir. Hikoyalar turli ruhda yozilishi mumkin. Masalan, an'anaviylik ruhida yoki, novatorlik ruhida yozilishi mumkin. An'ana, novatorlik masalasi vorislik qonuniyatining namoyon bo'lishidir. An'ana o'tmish adabiyotidan qolgan eng yaxshi, g'oyaviy badiiy boyliklar keyingi davr adabiyoti tomonidan rivojlantiriladigan o'tmish adabiyoti yoki boshqa xalqlar adabiyotlarining yutuqlari adabiy an'ana bo'ladi. Ya'ni bu asarda insonparvarlik, odob-axloq, mehr-oqibat g'oyalarining ilgari surilishidir. "XXI asrning sakkiz yashar bolasi" hikoyasida ham huddi shunday g'oya ilgari surilgan holda yakunlanadi. Adabiyot va san'atdagi yangilanish "novatorlik" so'zi bilan ifodalanadi. Novatorlik o'tmish adabiy an'analaridan foydalaniib yaratilgan asarlaridir. Har bir asarda ham novatorlik belgilari



bo‘ladi, har bir yozuvchi ham, u yoki bu darsjada novatordir. Lekin har qanday asar ham, bir yozuvchi ham to‘la ma’noda novator bo‘lavermaydi. Isajon Sultonning "XXI asrning sakkiz yashar bolasi" hikoyasida novatordir va an’anaviylik yetarlicha o‘z o‘rnini topgan. Hikoyaning boshidayoq, hozirgi zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti, ijtimoiy tarmoqlar rivojlangan bir paytda jamiyatning tanazzulga yuz tutishi, jarlikka qarab ketayotganligi, qorong‘u kunlar yaqinlashayotgani, shomning yaqinlashishi orqali aks ettiriladi. Ya’ni shom tasviri orqali hozirgi davrimizdagi fojiani ham aks ettiradi. *"Vaqt shomga yaqinlashib qolgan edi. Dunyoning bir burchida tug‘ilib endigina sakkiz yoshga kirgan bolakay televizor tomosha qilmoqda edi."* Dunyoning turli yerlarida bo‘layotgan, xalqni tanazzulga boshlaydigan turli voqeа-hodisalar insonlarning turli tarmoqlarga bog‘lanib qolganligi, vafot etish marosimini shov dastur qilib o‘tkazishi juda katta bir fojiadir. Hikoyada tasvirlanadiki tarmoqlar, telekanallar hozirgi kunda faqat birgina davlatni emas, butun dunyoni o‘rgimchak to‘riday egallab olganligi ham tasvirlanadi. Bola eng birinchi dasturdan qaysidir mamlakatda bo‘ladigan futbolda, qaysi jamoa g‘olib bo‘lishini oldindan aytib turadigan sakkizoyoqni avliyo deb bilishi, haqqa topshirish jarayonida ham olti qulochlik shisha idish ichiga solinishi va butun dunyo ahlining unga a’za tutishi haqidagi ko‘rsatuvni ko‘radi. Telekanallardagi barcha dasturlarda ham huddi shunday fojialar aks ettirilgan: *"Qanaqadir tushunarsiz yo’llar bilan tirilib, nima uchundir vahshiylashib ketgan g‘alati maxluqlar tiriklarga daf qilmoqda, aqlni shoshirar darajada kuchliligi va yanayam qo‘rinchisi - o‘lmasligi bilan qo‘rquitmoqda edi"*. Bularning orasida yana ko‘plab tabiat hodisalari ham sanab o‘tiladi: *"Kolumbiyadagi suv toshqini, Afrikadagi qurg‘oqchilik, Amerika sohillaridagi delfinlarning omimaviy o‘zini halok qilishi, Yaponiyada gen o‘zgartirish orqali qush kabi saylovchi kalamushlar yaratilganligi kabi tabiat va inson jamiyatining o‘zaro ta’sirlari ko‘rsatilgan"*. Bu haqidagi dunyoda bo‘layotgan voqealarni sakkiz yoshli bola boshqa dasturlarga o‘tkazarkan ijodkor uni shunday keltirib o‘tadi: ***"Bola boshqa dasturga o‘tdi"***, ***"Bola keyingi dasturga o‘tdi"***, ***"TV qimorxonada yutuq yutgan bolakay haqida- bola tengdoshining juda-juda zerikkanini ko‘rib siqilganini va charchaganini, yutuq putuq uni zarracha qiziqtirayotgani sezdi. Biroz achinish bilan qarab turib, yana boshqasiga o‘tdi"***, ***"Bola bundan ham zerikdi"***, ***"Bola yana dastur almashтиrdi"***. Bular orqali yozuvchi beparvolikni ham aks ettiradi. Hikoyada yana hozirgi kundagi dolzarb muammolarni oddiy bir holdek ko‘rsatilishi ham namoyon bo‘ladi. *"Afikaning kurg‘oqchil o‘lkalaridan biridagi bu bolakay hozir ikki chaqirim naridagi oziq-ovqat tarqatish markazi tomon emaklab bormoqda. Ortdagi o‘laksaxo‘ esa bolaning joni chiqishini kutmoqda..."* Tantanavor bir ovoz mazkur fotosuratning xalqaro Pulittser mukofotini olganini ta’kidlar, bolaning taqdiri nima bo‘lgani esa namoyondir. Shuningdek yapon professori va uning o‘g‘li syoppuku an’anasini qo‘llab o‘zlarini jonlariga qasd qilishini shov dasturga aylantirib barcha telekanallar tomoshabinlarga "Faqat biz bilan qoling" deya xitob qilardi. Yana boshqa bir ko‘rsatuvda esa inson a’zolarining sun’iylashtirish haqidagi habarlar berilmoqda edi : "Dunyo mutantlarga to‘lib bormoqda! – der edi direktor. – Bugun tevaragimiz sun’iy yurakli, sun’iy buyrakli va hatto sun’iy ko‘zli kishilar bilan to‘la, ular biz bilan yonma-yon yashamoqdalar. Yigirma birinchi asr - mutatsiya va misli ko‘rilmagan



evrilishlar asri bo'lajak!" deb xitob qilardi olim. So'nngi dasturda esa milliy qadriyatlarning, an'analarning halok bo'lgani haqida habar beradi. "*Kitobni o'z qo'lli bilan yozib, so'ngra uni arzon bahoga sotish uchun: «Bu Tangrining huzuridan», deydig'anlarga halokat bo'lsin!*". Ammo sakkiz yoshli bolaning uyida hozir ham milliy qadriyatlar, an'analar qolmaganini ko'rish mumkin. "*Bismilloh*" deb ota taomga qo'l uzatdi, bolalar esa onaning ham qo'l uzatishini kutishdi. Onadan so'ng aka, opa, so'ngida u qo'l uzatdi. Buni kuzatib turgan ota yana bir marta "*Barakalla, bolam*" deb qo'ydi". Bu ham qadimdan ota-bobolarimizdan qolgan bir qadriyatdir.

Xulosa qilinadigan bo'lsa, Isajon Sultonning "XXI asrning sakkiz yashar bolasi" hikoyasida sakkiz yoshli bola orqali butun dunyodagi dolzarb muammolar, fojialar ochib beriladi. Mana shunday vaziyatda ijodkor jamiyatni ogohlikka chaqiradi. Ijodkor o'z qalamining o'tkirligi bilan mana shunday voqeani ham juda chiroyli tarzda aks ettiradi. Ya'ni yozuvchi hikoyani shom yaqinlashayotgani bilan boshlab, shom kirgani bilan tugatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Isajon Sulton. Yigirma birinchi asrning sakkiz yashar bolasi.
<https://n.ziyouz.com/portalhaqida/xarita/uzbek-nasri/isajon-sultonov-1967>.
2. U. Normatov. Tafakkur yog`dusi. T. Sharq. 2005.
3. O. Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. T. Sharq. 2004.